

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

6/S-son (4-jild)

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ 5/6 (4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холикулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

Саидов Сарвар Атабулло ўғли – катта илмий ходим, Имом Термизий халқаро илмий-тадқиқот маркази, илмий тадқиқотлар бўлими.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Хожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулов Жамолиддиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудири;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилевич – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Аҳмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Каюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент,

Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

Умарханова Дилдора Шарипхановна

ЕВРОПА МИНТАҚАСИДА ЖИНОЯТ ИШЛАРИ БЎЙИЧА ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКНИНГ
РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ 9-14

Yakubova Iroda Bahramovna

MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA
MUALLIFLAR O'RTASIDAGI FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABARTLAR..... 15-26

Собирова Нозимахон

СИТУАЦИОННОЕ ПРЕДОТВРАЩЕНИЕ АКАДЕМИЧЕСКОЙ НЕДОБРОСОВЕСТНОСТИ: РОЛЬ
ОБУЧЕНИЯ, МОТИВАЦИИ И ИННОВАЦИОННЫХ ПОДХОДОВ К ОЦЕНКЕ 27-36

Йўлдошев Азизжон Эргаш ўғли

ЖАМИЯТ ВА ДАВЛАТ ИШЛАРИНИ БОШҚАРИШДА ИШТИРОК ЭТИШ
ҲУҚУҚИНИНГ ҚИЁСИЙ ТАҲЛИЛИ 37-45

Турсунов Ойбек

ЭТАПЫ СТАНОВЛЕНИЯ И РАЗВИТИЯ МЕЖДУНАРОДНОГО ВОДНОГО ПРАВА 46-53

Ismoilova Aziza Alisher qizi

MEHNAT MUNOSABATLARIDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHDA GENDER HUQUQIY
EKSPERTIZA AHAMIYATI VA HUQUQIY MUAMMOLARI 54-60

Safarova Shaxlo Pulatovna

YANGI O'ZBEKISTONNING HOZIRGI RIVOJLANISH DAVRIO'ZGARISHLARINING INSON
HUQUQLARI TA'LIMINI AMALGA OSHIRISH VA RIVOJIGA TA'SIRI 61-67

Akbaralieva Mukhayo Karamatullo kizi

CRIMINAL LIABILITY FOR KIDNAPPING IN FOREIGN COUNTRIES 68-71

Valijonov Daler Dilshodovich

PROBLEMS OF COMBATING CORRUPTION: INTERNATIONAL EXPERIENCE
AND PRACTICE OF EU MEMBERS 72-76

Asadov Eldorjon Nizomiddin o'g'li

DAVLAT FUNKSIYALARI VA DAVLAT MOLIIYASI O'ZARO NISBATINING HUQUQIY
MASALALARI 77-92

To'xtayev O'ktamjon Zarifjon o'g'li

VAKILLIK INSTITUTINING FUQAROLIK-HUQUQIY TAHLILI 93-103

Хайдарова Хилола Анваровна

НАСЛЕДОВАНИЕ ПРАВ НА ОБЪЕКТЫ ИНТЕЛЛЕКТУАЛЬНОЙ СОБСТВЕННОСТИ ... 104-109

Рахмонова Мохичехра Нодирбек кизи

СУВЕРЕНИТЕТ И ЮРИСДИКЦИЯ В КИБЕРПРОСТРАНСТВЕ 110-118

Худайбердиева Шоҳиста Акмал қизи

ЎЗБЕКИСТОН ВА ТУРКИЯ РЕСПУБЛИКАЛАРИ ЎРТАСИДАГИ ҲАМКОРЛИК ВА

ҲАМКОРЛИКНИНГ ҲУҚУҚИЙ АСОСЛАРИНИ ТАДҚИҚ ЭТИШДАГИ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ЁНДАШУВЛАР	119-129
---	---------

Alijonov Ayubjon Qobiljon o'g'li

RAQAMLI IQTISODIY HAMKORLIKNI XALQARO TARTIBGA SOLISH	130-136
---	---------

Fayzulloyev Shohijaxon Jobirovich

XALQARO SAVDODA NIZOLARNI HAL QILISH KONSEPSIYASINING RIVOJLANISHI: TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	137-141
--	---------

Fayzullaeva Shakhlo Jumaniyaz kizi

ISSUES OF ONLINE DISPUTE RESOLUTION UNDER THE WTO	142-147
---	---------

Raimov Elbek Bahodirovich

OLIY TA'LIM TASHKILOTINING YURIDIK SHAXS SIFATIDAGI HUQUQIY MAQOMI.....	148-152
---	---------

Alieva Kamola Ravshanovna

OVERCOMING LEGAL BARRIERS TO ENHANCE WOMEN'S POLITICAL PARTICIPATION IN UZBEKISTAN	153-161
--	---------

Juraeva Asal

MECHANISM OF ENFORCING ICA AWARDS IN UZBEKISTAN	162-166
---	---------

Rakhmonov Otabek

THE ROLE OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE IN THE REORGANIZATION OF JOINT STOCK COMPANIES	167-171
--	---------

Айбек Якубов

ПРАВОВОЙ ПОРЯДОК РЕГУЛИРОВАНИЯ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ И МЕЖДУНАРОДНО-ЧАСТНЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ОТНОШЕНИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В РАМКАХ ВСТУПЛЕНИЯ ВО ВСЕМИРНУЮ ТОРГОВУЮ ОРГАНИЗАЦИЮ	172-178
--	---------

Zoilboyev Javlon Karimjon o'g'li

MA'MURIY SUD Hujjatlarini ijroga qaratishning huquqiy tartibi	179-184
---	---------

07.00.00 – TARIX FANLARI

Elmuratov Ortiq Oltiboy o'g'li

TURONNING YUNON-MAKEDONLARGA QARAMLIK DAVRI ME'MORCHILIK AN'ANALARI.....	185-192
--	---------

Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li

URBANIZATSIYA TUSHUNCHASI, TURLARI VA UNING TAHLILI	193-199
---	---------

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Imamov Javokhir

LEVERAGING INTERNATIONAL BEST PRACTICES FOR ESTABLISHING MODERN TECHNOLOGICAL INDUSTRIAL ZONES IN UZBEKISTAN	200-203
--	---------

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Shodmonova Shaxnoza Dadaxujayevna

"TAHDID" FENOMENI VA UNING SIYOSIY JIHATLARI	204-209
--	---------

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Bawetdinov Mukhammeddin

UZAQBAY PIRJANOVNING PEYZAJ LIRIKASI 210-215

Соҳибова Зарнигор

ПЕЙЗАЖ ЛИРИКАСИДА ДАРАХТ ОБРАЗИ (ЗУЛФИЯ ИЖОДИ МИСОЛИДА) 216-219

Jonridova Sanobar Sherali qizi

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA IMPLIKATSION BIRLIKLAR TADQIQI 220-224

Sharipova Mokhidil

PHONETIC CHARACTERISTICS OF ONOMATOPOEIC WORDS IN ENGLISH

LANGUAGE..... 225-231

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

Umarov Abdurasul Abdurahimovich

PROFESSIONAL VA TEXNOLOGIK TA'LIM O'QITUVCHILARINI TAYYORLASHDA KOMPAS-3D
AVTOMATLASHGAN LOYIHALASH TIZIMINI QO'LLASH 232-237

Ro'ziyeva Nafosat Abdumumin qizi

YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHDA ABDULLA AVLONIYNING AXLOQIY
QARASHLARI 238-245

Qalandarova Maxliyo

MOLIYAVIY SAVODXONLIKKA O'RGATISHDA O'QUVCHILARINING O'QUVBILISH
FAOLIYATINI FAOLLASHTIRISH 246-251

Чинқулова Гулмеҳра Баҳроновна

ЎҚУВ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ВА БОШҚАРИШДА ЗАМОНАВИЙ
ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ..... 252-258

Ibragimova Venera Azadovna

TIBBIY OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA KREDIT MODUL TIZIMI IMKONIYATLARI..... 259-264

Turgunov Shuxratjon Nozimjon o'g'li

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HAQORATNING FONETIK VA MORFOLOGIK SATHLARIDA
IFODALANISHI 265-269

Received: 10 August 2024
Accepted: 15 August 2024
Published: 25 August 2024

Article / Original Paper

PHONETIC AND MORPHOLOGICAL ASPECTS OF INSULTS IN ENGLISH AND UZBEK

Turgunov Shukhratjon,

Doctoral student, Tashkent Institute of Textile and Light Industry.

Email: shuhratturgunov98@gmail.com

Abstract. This article examines the phonetic and morphological aspects of insulting words in English and Uzbek. It explores how phonetic features such as stress and intonation impact the perception of insults. Additionally, the morphological structures, including suffixes and prefixes used to form insulting words and their semantic implications, are analyzed. The article aims to identify the similarities and differences in the phonetic and morphological characteristics of insulting words in both languages.

Keywords: Insult, phonetic analysis, morphological analysis, stress, intonation, suffix.

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA HAQORATNING FONETIK VA MORFOLOGIK SATHLARIDA IFODALANISHI

Turgunov Shuxratjon Nozimjon o'g'li

Tayanch doktorant, TTYSI

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida haqoratli so'zlarning fonetik va morfologik jihatlari tahlil qilinadi. Haqoratli so'zlarning fonetik xususiyatlari, ularning talaffuzidagi urg'u va ohanglar orqali qanday ta'sir ko'rsatishi ko'rib chiqiladi. Shuningdek, morfologik sathda bu so'zlarning tuzilishi, qo'shimchalar orqali hosil qilinishi va ularning semantik yuklamalari o'rganiladi. Maqola, har ikkala tildagi haqoratli so'zlarning fonetik va morfologik xususiyatlarini solishtirish orqali ularning o'xshash va farqli jihatlari aniqlashga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Haqorat, fonetik tahlil, morfologik tahlil, urg'u, ohang, qo'shimcha.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4SI6Y2024N35>

Kirish. Haqoratning o'ziga xos xususiyatlari turli tillardagi lingvistik birliklarning o'zaro ta'siri orqali namoyon bo'ladi. Ushbu mavzu o'zaro qardosh bo'lmagan tillarda va tilning turli darajalarida yetarlicha o'rganilmagan. Haqoratning kognitiv tahlili uning turli sathlarda qanday ifoda vositalari orqali amalga oshirilishini chuqur o'rganishni turli sathlarda tahlil qilishni taqozo etadi.

Fonetik sathda ifodalanishi. Haqoratli so'zlarning fonetik sathdagi tahlili ularning talaffuz xususiyatlari, tovush tuzilmalari va bu tovushlarning tinglovchiga yetkazadigan ta'siri bilan bog'liq. Ingliz va o'zbek tillarida haqoratli so'zlarning fonetik tahlili bu tillarning tovush tizimlarida qanday o'xshashliklar va farqlar mavjudligini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon, ayniqsa, haqoratli so'zlarning qanday tovushlar yordamida keskinlik yoki kuchli emotsional ta'sir yaratishini o'rganishga yordam beradi.

Bu tahlil jarayonida ingliz va o'zbek tillarida haqoratli so'zlarning fonetik tuzilmasi, ularning tovush tuzilishi va tinglovchiga qanday emotsional ta'sir ko'rsatishi o'rganiladi. Shu orqali biz haqoratli so'zlarning fonetik sathda qanday hosil bo'lishini, ularning talaffuzidagi o'ziga xos jihatlarni va bu jihatlarni qanday ahamiyatga ega ekanligini aniqlashga harakat qilamiz. Bu esa, o'z navbatida, tillarning fonetik tizimlarini chuqurroq tushunishga zamin yaratadi.

Ingliz va o'zbek tillarida haqorat o'ziga xos fonetik xususiyatlarga ega ekanligi tadqiqotimiz jarayonida aniqlandi.

Masalan, "*Oqila qiz ekansiz!?*" degan gap ikki xil ohangda tahlil qilib ko'rilsa: avval tez, shoshilinch ohangda, keyin esa, birinchi so'zning birinchi bo'g'ini biroz cho'zib va kinoya ohangida talaffuz qilinsa ulardagi farqni yaqqol ko'rish mumkin. Ikkinchi misolda *oqila* so'zidagi oxirgi *o* unli tovushi ancha cho'ziqroq, kinoya ohangida talaffuz qilinadi. Tovushni cho'zib aytilishi kinoya, mensimaslik, shubha ma'nolarini ham ifodalaydi. Demak, haqoratni ifoda etishda ohang yoki unli tovushlarning cho'ziqlik bilan talaffuzi ham katta ahamiyat kasb etadi. Masalan:

– *O'hho'! Ja osmondasiz-ku, yigit!* [3,4]

Quyida ajratib ko'rsatilgan so'zning birinchi bo'g'ini cho'zib (yiiigit) va kinoya bilan talaffuz qilinsa, mensimaslik hamda haqoratni ifodalashini ko'rish mumkin.

Ingliz tilida haqoratli so'zlarda urg'u va cho'zilish bo'g'inlari talaffuzda katta ahamiyatga ega. Birinchi bo'g'inda kuchli urg'u va cho'zilgan tovushlar so'zning haqoratli ekanligini yanada kuchaytiradi. Bu nafaqat so'zning fonetik jihatini, balki uning ma'nosini ham o'zgartiradi [4]. Masalan: – *Sweetheart, this is not your business!* (*Azizam, bu sening ishing emas!*)

Jane Austenning "Andisha va G'urur" asarida Mr. Darcy Elizabeth haqida quyidagi gapi: *She is tolerable; but not handsome enough to tempt me* muloyimlik bilan aytilgan bo'lsa-da, uning mensimaslik ohangi va konteksti sababli haqoratli tarzda qabul qilinadi [7,7].

Yuqorida keltirilgan fikrlarga xulosa qilib, shuni ta'kidlash joizki, tadqiq etilayotgan tillarda haqoratning fonetik usulida o'ziga xos o'xshash va farqli taraflari aniqlandi. O'xshash qirralari shundaki, ingliz va o'zbek tillarida haqorat ma'nosini ifoda etish tovushning cho'zib, kinoya ohangida talaffuz etilishiga bog'liq bo'ladi. Ingliz tilidan farqli o'laroq, so'z oxiridagi unli tovush cho'ziq talaffuz etilishi haqorat ma'nosini ifoda etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ingliz tilida esa bu hodisa so'zning o'rtasidagi unlining cho'zilishi va intonatsiya bilan izohlanadi.

Morfologik sathda ifodalanishi. Haqorat insonlar o'rtasidagi muloqotda ko'pincha salbiy munosabat va g'azabni ifodalovchi til vositasi sifatida paydo bo'ladi. Bu so'zlar nafaqat o'zlarining semantik yuklamasi bilan, balki morfologik jihatdan ham muhim tahlil obyekti hisoblanadi. Ingliz va o'zbek tillarida haqoratni morfologik sathda tahlil qilish, bu tillarning so'z yasash qonuniyatlari, so'z turkumlari va grammatik kategoriyalari orqali haqoratli so'zlarning shakllanishi va qo'llanishini o'rganish imkonini beradi.

Ushbu tahlil orqali biz ingliz va o'zbek tillarida haqoratli so'zlarning qaysi morfologik xususiyatlarga ega ekanligini aniqlashga harakat qilamiz. Bu jarayonning maqsadi, har ikkala tildagi haqoratli so'zlarning strukturaviy o'xshashliklari va farqlarini ko'rsatishdir. Masalan, ingliz tilidagi haqoratli so'zlar ko'pincha prefikslar va suffikslar yordamida hosil qilinsa, o'zbek tilida esa bu jarayon ko'proq qo'shimchalar orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, bu tahlil haqoratli so'zlarning so'z turkumi sifatida qanday tasniflanishi va ularning nutq tarkibida qanday funksiyalarni bajarishini ko'rsatadi.

Ingliz va o'zbek tillarida haqoratning morfologik tahlili orqali biz har ikkala tilda haqoratli so'zlarning qanday hosil bo'lishini, ularning grammatik va morfologik xususiyatlarini chuqurroq o'rganishimiz mumkin. Bu tahlil esa, o'z navbatida, tillarning o'ziga xos morfologik xususiyatlarini chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ingliz va o'zbek tillarida haqorat morfologik nuqtai nazardan o'rganilar ekan, mazkur tillarda haqoratning o'xshash va farqli jihatlari kuzatildi.

Ayrim olimlar ingliz tilidagi *-ard, -ster, -less* [2], kabi suffikslar, *un-, -in* [5], *dis-, non* [9] old qo'shimchalarni salbiy ekspressivlikni ham haqoratni ifoda etadi, deb yondashadilar.

O'zbek tilida esa otlarga *-siz, -ma, -mas, -xo'r, -frush, -kor, -vachcha, -cha, -g'ar, be-, no-* kabi qo'shimchalar so'zlarga qo'shib salbiy ma'no ifodalashini bir necha olimlarning ishlarida qayd etib o'tilgan.

O.M. Mo'minov ingliz tilida *de- non-, un- in-, ir-, il-, im-, dis-* o'zbek tilida esa *be-, no-, -siz* qo'shimchalari so'zlarga qo'shib salbiy ma'noni ifodalashini ta'kidlab o'tadi [6, 32-35].

Q. Sapayev o'zbek tilida *bad-* old qo'shimchasi shaxs va narsalarning yasash asosi anglathan ma'no bilan bog'liq salbiy belgisini bildiruvchi sifat yasaydi (*bad- bashara, bad- nafs*) deb takidlagan [8, 63].

I.T. Alijonovning takidlashicha, *xo'r, -parast, -xon* kabi qo'shimchalar qo'shilish natijasida salbiy bo'yoqdorlik namoyon bo'ladi va ular nutqda salbiy ma'nolar ifodalashi uchun ishlatiladi [1, 20, 21, 22].

Bizning fikrimizcha, Ingliz tilida haqoratni ifodalovchi suffikslar soni nisbatan kam bo'lsa-da, ular turli so'zlar, birikmalar va frazeologik birliklarda o'z ifodasini topadi. O'zbek tili aglutinativ til bo'lgani sababli, unda affiksatsiya orqali so'z yasalishi juda keng tarqalgan. Boshqa tomondan, ingliz tili analitik til hisoblanadi, bu tilning xususiyati tufayli suffikslar kamroq qo'llaniladi, ammo bu haqoratli ma'nolarni ifodalashda frazeologik birliklar va so'z birikmalarining keng qo'llanilishiga to'sqinlik qilmaydi., unda suffikslar juda kam hollarda so'zlarga qo'shib keladi.

O.M. Mo'minovning ta'kidlashicha, ingliz tilida suffikslarning soni, masalan, o'zbek tili bilan taqqoslaganda unchalik ko'p emas. Ingliz tilida jami 67 ta suffiks mavjud bo'lsa, o'zbek tilida bu raqam 171 taga yetadi. Boshqa tomondan, prefikslarning ishlatilishi ingliz tiliga o'zbek tilidan ko'ra xosroq bo'lib, ingliz tili ko'proq prefikslarga tayanadi, o'zbek tili esa kengroq suffikslar tizimiga ega [6, 32].

Tadqiqotimiz jarayonida aniqlanishicha, ingliz tilida haqorat qo'shimchalari 11 ta, ya'ni *-ard, -ster, -less, un-, -in-, dis-, non-, im-, de- ir-, il-*, qo'shimchalaridir. Ular salbiy bo'yoqdorlikni ifodalash bilan birga, haqoratni ham alohida ifoda etadi. O'zbek tilida esa haqorat ma'nosini va salbiy bo'yoqdorlikni ifoda etishda 15 ta qo'shimchalari qo'llaniladi.

Bizning fikrimizcha, salbiy bo'yoqdorlikni hosil qiluvchi qo'shimcha qatnashgan so'z haqorat ohangida ifoda etilsa, haqoratning darajasi ortadi. Masalan, *-Attang! Shu tashvishlarga Abdurahmon ponsod sabab bo'ldi, bachchag'ar! Noinsof! Bo'lmasa, jimgina o'tirib edim. No-* old qo'shimchasi har doim ham haqoratni ifodalamaligi mumkin sababi bu inkor ma'noi izohlab keladi, ushbu vaziyatda gap tarkibida, quyidagi qo'shimchani olgan so'zga urg'u berib, haqorat ohangida talaffuz qilinsa, kamsitish va haqoratni ifodalashi mumkin. Tadqiqotimiz davomida haqoratni ifodalashda ohangning o'rni muhim ekanligi namoyon bo'ldi va shu narsa aniq bo'ldiki, hech qanday tarkibida salbiy bo'yoqdorlik mavjud bo'lmagan qo'shimchalar ham ohang yordamida haqoratni ifodalashi mumkin. Quyidagi misol orqali ko'rib chiqishimiz

mumkin. "Yigitcha ishladi" degan gapga etibor berilsa, -cha qo'shimchasi erkalash va kichraytirish qo'shimchalari sifatida namoyon bo'ladi, biroq ushbu gapni haqorat va kamsitish ohangida talaffuz etilsa, tinglovchiga yoki 3- shaxsga nisbatan haqoratni ifodalashi mumkin. Quyidagi ma'nolar kontekstga, nutqning umumiy mazmuniga qarab belgilanadi.

Tadqiq etilayotgan tillarda haqoratning morfologik vositalar yordamida ifodalanishining o'xshash va farqli jihatlari mavjudligi tadqiqotimiz jarayonida aniqlandi.

Ingliz tilida salbiy bo'yoqdorlik beruvchi qo'shimchalari ot (*im+moral, gan+ster*) sifat (*un+kind*) va fe'l (*de+grade*) so'z turkumiga qo'shilsa, o'zbek tilida ham ot (*mol+ parast*), sifat (*no+sog'lom*) va fe'l (*ishla+mas*) so'z turkumlariga qo'shib keladi.

Ingliz tilida old qo'shimchalar salbiy ma'no ifodalashda keng qo'llaniladi. Misol uchun, *un-, in-, dis-, non-* kabi old qo'shimchalar keng tarqalgan va ular sifat va fe'llarga qo'shib, salbiy yoki qarama-qarshi ma'no hosil qiladi (*unhappy, incompetent, disrespect, nonexistent*). O'zbek tilida esa old qo'shimchalar kamroq qo'llanadi va asosan suffikslar yordamida salbiy ma'no hosil qilinadi (*itvachcha, iymonfrush, maishatparast*).

Tadqiqot natijalari haqorat va salbiy bo'yoqdorlik ma'nosi quyidagi so'z turkumlari yordamida ifoda etilishini ko'rsatdi:

a) **ot** so'z turkumi orqali: *bastard, scoundrel / hayvon, itvachcha, eshak*;

b) **sifat** so'z turkumi orqali: *crazy, rude, mad, / sassiq, noinsof, haqir odam*;

v) **olmosh** so'z turkumi yordamida: Ingliz tilida esa olmosh so'z turkumi orqali haqorat ma'nosi ifodalanishi tadqiqotimiz jarayonida uchramadi. O'zbek tilida quyidagi so'z orqali ifodalanishi mumkin: **Sen** kim bo'libsan? (kamsitish ohangida);

g) **fe'l** so'z turkumi orqali: *insult, disrespect, degrade / yerga bukmoq, yo'qol*;

d) **son** so'z turkumi orqali: ingliz tilida esa son so'z turkumi orqali haqorat ma'nosi ifodalanishi tadqiqotimiz jarayonida uchramadi. O'zbek tilida esa quyidagi gapda ishlatilgan son haqoratni ifodashi mumkin: **Sen** bitta odam ham emassan!;

ye) **ravish** so'z turkumi orqali: ingliz hamda o'zbek tillarida ravish so'z turkumi orqali haqorat ma'nosi ifodalanishi kuzatildi. Masalan, Your son studies *barely* / O'g'lingiz *zo'rg'a o'qiydi* misollari shular jumlasidan. Shuningdek bazi bir konketstlarda *always nuqul* ma'nosini ifodalaydi, bu esa haqorat ma'nosida ishlatilishi mumkin.

Xulosa. Ingliz va o'zbek tillarida haqoratli so'zlarning fonetik va morfologik sathda tahlil natijalariga ko'ra ikki tilda o'xshash va farqli jihatlari namoyon bo'ldi. Fonetik tahlil natijalariga ko'ra, har ikkala tilda ham tovushning cho'zilishi va urg'u haqoratli ma'noni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Morfologik tahlil esa bu so'zlarning tuzilishi va ularda ishlatiladigan qo'shimchalar orqali ifodalangan salbiy bo'yoqdorlikni ko'rsatadi. Ushbu tahlillar tillarning o'ziga xos fonetik va morfologik xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Адабиётлар/Литература/References:

1. Ahmadjonov I. T. Ot shakillarini hosil qiluvchi affikslarning semantic-uslubiy tadqiqi. Filol. fan. Nomz... diss.avtoref. farg'ona, 2023.
2. Hans Marchand "The Categories and Types of Present-Day English Word-Formation 196-283
3. Hoshimov O'. Okki eshik orasi. - T.: O'qituvchi nashriyot- matbaa ijodiy uyi, 2018. -B.
4. Hughes, Arthur, Peter Trudgill, and Dominic Watt. English accents and dialects: An introduction to social and regional varieties of English in the British Isles. Routledge, 2013.

5. Kayne, Richard S. "Antisymmetry and morphology: Prefixes vs. suffixes." *Wiener Linguistische Gazette* 82 (2017): 145-161.
6. Muminov O.M. Lexicology of the English Language (олий ўқув юртларининг инглиз филологияси, таржимонлик факультети талабалари, магистрлари учун дарслик). – Тошкент: Мехридарё, 2006. – РР. 32.
7. Austen, Jane. *Pride and Prejudice*. Edited by Vivien Jones, Penguin Classics, 2003.
8. Sapayev, Qalandar. "Hozirgi o'zbek tili." *morfemika, so'z yasalishi va morfologiya) O'quv qo'llanma. Toshkent-2009* (2009). 63.
9. Subandowo, Dedy. "Negation affixes in English." *Premise: Journal of English Education and Applied Linguistics* 3.2 (2017).

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

№ S/6 (4) – 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг
долзарб муаммолари**” электрон
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-
сонли гувоҳнома билан давлат
рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM”
масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-
уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).